

# **BIZNES SOHASIGA MALAKALI KADRLARINI TAYYORLASH TIZIMI TARAQQIYOTINING ISTIQBOLLARI**

**Abdurazakova Nargiza Rixsibayevna**

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Alfraganus universiteti "Moliya" kafedrasи dotsenti

**Annotatsiya:** Maqolada mamlakatimizda biznes sohasi uchun malakali kadrlarini tayyorlash, va ularning tabaqalari tahlil qilingan, kadrlarni tayyorlashga doir muammolari aniqlangan va ularni bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** biznes, boshqaruv, kadr, muassasa, taraqqiyot, istiqbol, soha.

## **PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE SYSTEM FOR TRAINING QUALIFIED PERSONNEL FOR BUSINESS**

**Abdurazakova Nargiza Rikhsibayevna**

Doctor of Philosophy (PhD) in Economics

Associate Professor of the Department of Finance, Alfraganus University

**Abstract:** The article analyzes the state of training managerial personnel with higher education for the field of business, identifies existing problems and develops recommendations for their elimination.

**Key words:** the field of business, managerial personnel with higher education, higher educational institutions, business education, the field of education "business and management".

**Аннотация:** В статье анализируется состояние подготовки управленических кадров с высшим образованием для бизнеса, выявляются существующие проблемы и разрабатываются рекомендации по их

устранению.

**Ключевые слова:** сфера бизнеса, управленческие кадры с высшим образованием, высшие учебные заведения, бизнес-образование, сфера образования “бизнес и управление”.

## Kirish

Mamlakatda xususiy tadbirkorlik va biznesni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'tgan yil yakuniga ko'ra, kichik tadbirkorlarnin ulushi mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi salmog'i 51,2 foizni tashkil etgan[1].

Mazkur yilda kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti eksportning muntazam o'sish tendensiyasiga ega bo'layotganligi hamda tijorat banklari tomonidan kichik biznesni rivojlantirish uchun ajratilayotgan kreditlar hajmining o'sib borayotganligi kabilar fikrimizning yaqqol isboti bo'la oladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotning yo'lga qo'yilishi ham biznesni rivojlantirishga qaratilgan katta e'tiborning namunasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Ana shunday muloqtlardan navbatdagisi 2024 yilning 20 avgust kuni Nukus shahrida o'tkazilgan bo'lib, unda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan kichik va o'rta biznes uchun moliyaviy resurslarni ko'paytirish, biznesni infratuzilma, yer va energiya bilan ta'minlash, ichki bozorda teng raqobat muhitini yaratish, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, xizmatlar sohasiga yangi turtki berish, shuningdek biznes uchun to'siq va g'ovlarni yanada qisqartirish singari yangi tashabbuslar ilgari surilgan bo'lib [2], bunday tashabbuslarning amalda muvaffaqiyatli tadbiq etilishi yuqori malakali, yana ham aniqroq qilib aytadigan bo'lsak oliy ma'lumotli boshqaruv kadrlariga har tomonlama bog'liqdir.

Mamlakatda biznes sohasi uchun oliy ma'lumotli boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimi mavjud bo'lib, undagi bir qator muammolar, jumladan oliy ta'lim muassasalari (OTM) da boshqaruv kadrlarini tayyorlashda bozor talablaridan kelib

chiqqan xolda yondashilmayotganligi, ta’limning ko‘proq nazariylashganligi, OTM larda boshqaruv kadrlari ish qobiliyatlarini kuchaytirish imkoniyatlarining kamligi va boshqa shu kabi muammolar ularni bartaraf etish uchun taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishning dolzarb ahamiyatga ega ekanligini asoslab beradi.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHЛИLI**

Biznes sohasi uchun oliy ma’lumotli boshqaruv kadrlarini tayyorlash sifatini oshirish muammolari bilan bir qator xorijlik, MDH hamda mahalliy olim, tadqiqotchi va mutaxassislar shug‘ullanib kelishayotgan bo‘lib, ular biznes oldiga qo‘yiladigan vazifalarga erishishda yuqori malakali boshqaruv kadrlarining ahamiyati va bunday boshqaruv kadrlarini tayyorlashda biznes ta’limi tizimining tutgan o‘rni xususida fikr – mulohazalarini bildirishgan.

Kanadalik bir guruh olim, tadqiqotchi va mutaxassislar Aron Etingen, Valeriy Kiselyovskiy, Sindi Makleod, Geri Narunskiy, Boris Podlubnyiy, Viktoriya Martin, Kayla Briel, Diana Mokyut, Exsan Safdari, Doktor Bashir Maxul, Anish Dvivedi va Brayn Makkeylarning fikriga ko‘ra, kompaniyalarning rahbarlari kuchli liderlik xususiyatlariga ega bo‘lgan boshqaruv kadrlarining kompaniya muvaffaqiyatini ta’minalash va uning global kelajagini belgilab berishda juda katta rol o‘ynashini yaxshi tushunishadi. Bunday boshqaruv kadrlarining yangi avlodni kompaniyalar duch keladigan challenge, ya’ni chaqiriqlarga munosib javob berish (ya’ni, muammolarni hal etish) va imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanishga yaxshi tayyor bo‘lishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday kadrlarni tayyorlashda oliy ta’lim katta salohiyatga ega bo‘lib, universitet va kollejlar talabalarni kelajakda muvaffaqiyatli kar’era qilishlari uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va tajribalar bilan quollantira oladi [3].

Bir gurux xorijlik olimlar, jumladan Angliyalik Xovard Tomas, Norvegiyalik Peter Loranj va Hindistonlik Jagdish Shets ning ta’kidlashicha, zamonaviy biznesda etika (ya’ni, biznesning ahloqiy jihatlari) hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib borayotgan bir paytda, biznes maktablari bugungi kun va kelajakning yuqori etikaga ega oliy ma’lumotli boshqaruv kadrlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi [4].

Buyuk Britaniyalik tadqiqotchi Daniel Xiginbosamning qayd etishicha, oliv ma'lumotli boshqaruv kadrlari shaxslararo munosabatlarni o'rnatish, kommunikatsiya va motivatsiya qilish, ishni tashkil etish va vakolatni taqsimlay olish, keljakni rejalashtirish va strategik fikrlash, muammolarni hal etish va qaror qabul qilish, tijoratni tushunish va mentorlik qilish kabi ish qobiliyatlariga ega bo'lishlari kerak bo'lib, universitetlar bunday qobiliyatlarni shakllantirish imkoniyatiga ega hisoblanishadi. U bu boradagi universitetlarning imkoniyatlarini keltirib o'tgan bo'lib, ular orasidan talabalar jamiyatlari, amaliyot dasturlari, talabalar volontyor sifatida faoliyat ko'rsatadigan turli xil loyihalar va ta'limdan ajralmagan holda ishlashga ruxsat berish kabilarni alohida ko'rsatib bergen [5].

Rossiyalik olim va tadqiqotchilar Vladimirova I. L., Kallaur G. Yu. va Sylgankova A. A. ning ta'kidlashicha, raqamlashtirish, samaradorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun loyihaviy boshqaruv usullariga o'tish, innovatsion iqtisodiyot, industriallashtirish va barqarorlikka erishish kabi mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining muhim yo'nalishlari boshqaruv kadrlarini tayyorlashning yangi modelini shakllantirishni talab qilmoqda. Ularning qayd etishicha, oliv ma'lumotli boshqaruv kadrlari uchun boshqaruv qarorlarini asoslash va qabul qilishning iqtisodiy mezonlari to'g'risidagi bilimlardan tashqari bugungi va keljakdagi avlod, jumladan o'z xodimlarining hayoti va mehnat faoliyati uchun qulay va xavfsiz muhitni yaratishga bo'lgan professional javobgarlik, tabiiy boyliklar va atrof – muhitni asrash, kambag'allikni tugatish va ehtiyojmandlarga yordam berish kabilalar muhim xususiyatlarga aylanib bormoqda [6].

Mahalliy olim Sabirov A. X. ning qayd etishicha, mamlakatda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari uchun yuqori malakali mutaxassislarning yetishmovchiligi sharoitida biznes ta'limini rivojlantirish birlamchi ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim xizmatlari bozorining ushbu segmenti mahalliy iqtisodiyotning o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlashga qodir bo'lgan tadbirkorlik va boshqaruv kadrlarini tayyorlash uchun javob beradi. Uning fikricha, biznes ta'limi o'z ichiga oliv ta'limgacha, oliv ta'lim va oliv ta'limdan keyingi bosqichlarni olib, oliv ta'lim muassasalari yangi bilimlarni shakllantirish markazlari sifatida davlat va tijorat

tuzilmalarining e'tiborida bo'ldi: masalan, 2019 yilning 8 oktyabrida tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" ning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib uzlusiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish va mehnat bozorining zamonaviy talablariga muvofiq ravishda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash hisoblanadi. Ushbu konsepsiya tanqidiy fikrlashga o'rgatish dasturlarini joriy etish, mustaqil ta'lim, virtual tizimlardan foydalanish va boshqa shu kabilarga e'tibor qaratiladi. Oliy ta'limning mahalliy va xalqaro mehnat bozorlaridagi raqobatbardoshligini oshirish masalalari O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha kompleks ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish Konsepsiyasidan ham o'rin olgan [7].

Umuman olganda, deyarli barcha olimlar, tadqiqotchi va mutaxassislar biznes muhitida yuz berayotgan keskin o'zgarishlar natijasida oliy ma'lumotli boshqaruva kadrlari va ularni tayyorlash tizimiga nisbatan yangidan yangi talablar yuzaga kelayotganligini ta'kidlashgan bo'lib, ularning xulosa qilishlaricha, bunday talablarga moslashib ishlash barqaror rivojlanishni ta'minlaydi.

## **TADQIQOT METODOLOGIYaSI**

Tadqiqotning maqsadi bo'lib mamlakatimizda biznes sohasi uchun oliy ma'lumotli boshqaruva kadrlarini sifatli tayyorlash bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish hisoblanadi. Tadqiqotda ana shu maqsadga erishish uchun biznes sohasi bo'yicha oliy ma'lumotli boshqaruva kadrlarini tayyorlashga oid me'yoriy - huquqiy hujjatlardan foydalanildi. Bundan tashqari bir qator xorijlik, MDH, xususan Rossiyalik hamda mahalliy olim, tadqiqotchi va mutaxassislarning yondashuv va qarashlari ilmiy - nazariy va amaliy jihatdan o'rganib chiqildi. Biznes va oliy ta'limga bog'liq bo'lgan davlat tashkilotlarining rasmiy vebsaytlaridagi ma'lumotlarning tahlili amalga oshirildi.


Umuman olganda mavzuni o'rganish davomida birlamchi va ikkilamchi tadqiqot manbalaridan foydalanishga katta e'tibor qaratildi. Birlamchi tadqiqot manbalarida muallif tomonidan mahalliy mutaxassislar va mavzuga qiziquvchi insonlar bilan o'zaro intervyyu va so'rovnama usullaridan foydalanilgan bo'lsa,

ikkilamchi tadqiqot manbalarida yuqorida aytib o‘tganimizdek me’yoriy – huquqiy hujjatlar, olim, tadqiqotchi va mutaxassislarning fikrlari bayon etilgan manbalar hamda rasmiy vebsaytlardagi ma’lumotlardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’kidlab o‘tganidek, mamlakatimiz oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biri – “bu yuqori kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega, puxta o‘ylangan, har tomonlama to‘g‘ri qarorlar qabul qila oladigan, belgilangan maqsadlarga erishadigan rahbarlar va mansabdor shaxslarning yangi tarkibini shakllantirishdan iborat” [8]. Darhaqiqat, mamlakatimiz biznes sohasini ham xalqaro talablarga muvofiq ravishda rivojlantirish uchun aynan shunday sifatlarga ega boshqaruv kadrlari kerak bo‘lib, ularni tayyorlash uchun oliy ta’lim muassasalari, xususan biznes sohasi uchun mutaxassislar tayyorlaydigan OTM lar juda katta rol o‘ynaydi.

1 – rasmda mamlakatimizda biznes sohasi uchun oliy ma’lumotli boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimi ifodalangan bo‘lib, bu tizim asosan ikki guruhga bo‘linadi: OTM hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi (BTOM), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi (DBA) va O‘zbekiston Respublikasi Bank - moliya akademiyasi (BMA). OTM lar ham o‘z navbatida uch guruhga bo‘linadi: davlat OTM, nodavlat OTM va xorijiy OTM. Shuni aytib o‘tish joizki, bu OTM larning hammasi ham biznes sohasi uchun boshqaruv kadrlarini tayyorlamaydi.



**1 – rasm. Biznes sohasi uchun oliy ma'lumotli boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimi<sup>1</sup>**

1 - rasmda bunga aniqlik kiritilgan: davlat OTM va nodavlat OTM orasidan “Biznes va boshqaruv” ta’lim sohasi bo‘yicha bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va (yoki) magistratura mutaxassisliklari tayyorlaydigan OTM lar biznes sohasi uchun boshqaruv kadrlari tayyorlaydigan OTM lar sifatida e’tirof etiladi. Bundan tashqari, biznes sohasi uchun boshqaruv kadrlari tayyorlaydigan davlat OTM “Biznes va boshqaruv” ta’lim sohasi ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha qo‘shma ta’lim dasturlari orqali ham bu vazifani amalga oshiradi. Xorijiy

<sup>1</sup> Ушбу расм муаллифнинг ўзи томонидан яратилди.

OTM lar orasidan biznes va menejmentga oid bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari yoxud BBA va (yoki) MBA bo‘yicha mutaxassislar tayyorlaydigan OTM biznes sohasi uchun boshqaruv kadrlarini tayyorlaydigan xorijiy OTM lar hisoblanadi.

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi MBA, PM (loyiha boshqaruvi) va Xalqaro ikki diplomlik magistratura mutaxassisliklarini tayyorlaydigan to‘laqonli biznes sohasi uchun oliy ma’lumotli boshqaruv kadrlari tayyorlaydigan ta’lim dargohi hisoblanadi [9]. Garchi Davlat boshqaruvi akademiyasi davlat boshqaruvi bo‘yicha magistratura mutaxassislarini tayyorlasada, davlat va biznes o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nuqtai – nazaridan kelib chiqqan holda, ushbu ta’lim dargohini ham biznes sohasi uchun oliy ma’lumotli boshqaruv kadrlarini tayyorlaydigan muassasalar qatoriga qo‘sishga qaror qildik [10]. Va nihoyat, Bank - moliya akademiyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u “Biznes va boshqaruv” ta’lim sohasi yo‘nalishlari negizida tayyorlanadigan magistratura (MSc) mutaxassisliklari bo‘yicha boshqaruvchi kadrlar tayyorlaydigan muassasa hisoblanadi [11].

OTM lardan farqli ravishda Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, Davlat boshqaruvi akademiyasi va Bank - moliya akademiyasi tom ma’noda biznes sohasi uchun oliy ma’lumotli boshqaruv kadrlari tayyorlaydigan ta’lim muassasalari hisoblanib, ularda o‘z tashkilotlarida muayyan muvaffaqiyatga erishgan oliy ma’lumotli mutaxassislar, hatto boshqaruv kadrlari ham tahsil olish uchun kelib, bunda aniq maqsad, ya’ni o‘qishni tamomlagandan so‘ng kareralarini oshirishni ko‘zlashadi.

1 – jadvalda OTM da “Biznes va boshqaruv” ta’lim sohasi bo‘yicha ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari, shuningdek Biznes va tadbirkorlik oliy maktabidagi magistratura mutaxassisliklari xususida ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, ularni keltirishdan maqsad biznes sohasi uchun oliy ma’lumotli boshqaruv kadrlarini tayyorlashda qanday ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari mavjudligi to‘g‘risida aniqroq tasavvurni shakllantirishdan iboratdir. Jadvalda OTM lar tayyorlaydigan “Biznes va boshqaruv” ta’lim sohasining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari past

kulrangda bo‘yalgan bo‘lsa, Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tayyorlaydigan magistratura mutaxassisliklari och yashil rangda bo‘yalgan. Jadvadagi BTY = MM belgisi ham bakalavriat ta’lim yo‘nalishi ham magistratura mutaxassisligi bir xil nomlanishga ega ekanligidan dalolat beradi.

## 1 – jadval

### **Oliy ta’lim muassasalari hamda Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida biznes sohasi uchun boshqaruv kadrlarini tayyorlash yo‘nalishlari va mutaxassisliklari<sup>2</sup>**

<b>Oliy ta’lim muassasalari</b> <b>Davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari</b>	<b>O‘zbekiston Respublikasi</b> <b>Vazirlar Mahkamasi huzuridagi</b> <b>Biznes va tadbirkorlik oliy</b> <b>maktabi</b>
<b>“Biznes va boshqaruv” ta’lim sohasi</b>	<b>Magistratura</b> <b>mutaxassisliklari</b>
<b>Bakalavriat ta’lim yo‘nalish (BTY): Iqtisodiyot</b>	
<b>Magistratura mutaxassisliklari (MM):</b>  <b>Iqtisodiy nazariya, iqtisodiyot, makroiqtisodiyot, iqtisodiyot axborot texnologiyalari va tizimlari, monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirish, bioiqtisodiyot, ekonometrika, mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiy xavfsizlik, raqamli iqtisodiyot.</b>	MVA – Global Management MVA – Moliya MVA – Agrobiznes MVA – Kichik biznes va tadbirkorlik MVA – Raqamli iqtisodiyot
<b>BTY: Buxgalteriya hisobi</b>	MVA – Loyiha boshqaruvi
<b>MM: Buxgalteriya hisobi, audit</b>	Xalqaro ikki diplom: MBA – IT Business (AJOU)
<b>BTY = MM: Soliqlar va soliqqa tortish</b>	Xalqaro ikki diplom: MBA – Korporativ boshqaruv va biznesni strategik rivojlantirish (RANXiGS)
<b>BTY = MM: Bojxona ishi</b>	
<b>BTY: Moliya va moliyaviy texnologiyalar</b>	
<b>MM: Moliya, korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar, investitsiyalarni boshqarish, sug‘urta ishi, sug‘urta kompaniyalarini boshqarish, davlat moliyaviy nazorati va audit, korporativ moliyanı boshqarish, iqtisodiyotni monetar tartibga solish,</b>	

<sup>2</sup> Ушбу жадвал муаллифнинг ўзи томонидан яратилган.

**pensiya fondlarini boshqarish, baholash ishi.**


**BTY = MM: Bank ishi**

<b>BTY: Statistika</b>	<b>MM:</b> Statistika, biznes – tahlil
<b>BTY: Menejment</b>	<b>MM:</b> Menejment, loyiha boshqaruvi, PR menejment va PR tahlil, korporativ boshqaruv
<b>BTY: Biznesni boshqarish</b>	<b>MM:</b> Biznesni boshqarish (Master of Business Administration - MBA), strategik menejment va xalqaro biznes (MVA).
<b>BTY = MM: Inson resurslarini boshqarish</b>	
<b>BTY: Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar</b>	<b>MM:</b> Jahon iqtisodiyoti, tashqi iqtisodiy faoliyat.
<b>BTY: Marketing</b>	<b>MM:</b> Marketing, lizing, strategik marketing
<b>BTY: Savdo ishi</b>	<b>MM:</b> Savdo ishi, elektron tijorat
<b>BTY = MM: Mamlakatshunoslik</b>	

1 - jadvalni yaratishda oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori (klassifikator) dan foydalanilgan bo‘lib, unda bitta bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga bir va undan ortiq magistratura mutaxassisliklari to‘g‘ri kelmoqda [12]. Bu biznes sohasi uchun boshqaruv kadrlarini tayyorlashdagi mantiqiy ketma – ketlik bo‘lib, bakalavriat ta’lim yo‘nalishida talabalar sohaning umumiy asoslari to‘g‘risida bilim va ko‘nikma ega bo‘lsalar, magistratura mutaxassisligida ushbu sohadan kelib chiqadigan qandaydir bir soha bo‘yicha yanada chuqurroq, ko‘proq amaliy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi.

O‘zbekiston OTM lari orasidan faqat bitta OTM, ya’ni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TDIU) “Biznes va boshqaruv” ta’lim sohasi bo‘yicha deyarli barcha bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini tayyorlaydigan yagona yetakchi OTM hisoblanadi. Oliy ma’lumotni allaqachon ko‘lga kiritgan va biznes sohasidagi kar’erasini oshirish maqsadida magistr darajasiga ega bo‘lishni hohlaganlar uchun Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi yetakchi ta’lim muassasasi hisoblanadi.

2 – rasmda 2020/2021, 2021/2022 va 2022/2023 o‘quv yillari boshiga “Biznes, boshqaruv va huquq” bilim sohasi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar soni ko‘rsatilgan. Klassifikatorda “Biznes, boshqaruv va huquq” bilim sohasi “Biznes va boshqaruv” va “Huquq” ta’lim sohalariga bo‘lingan holda ko‘rsatilgan. “Huquq” ta’lim sohasida tahsil olgan talabalar “Biznes va boshqaruv” dagiga nisbatan ancha kam miqdorni tashkil etganligini hisobga olsak (masalan, 2020/2021 o‘quv yilida “Biznes va boshqaruv” da 54,2 ming kishi tahsil olgan bo‘lsa, “Huquq” da 7,2 ming kishi tahsil olgan, 2021/2022 o‘quv yilida, mos ravishda 95,1 ming kishi va 10,8 ming kishi tahsil olgan) [13], “Biznes, boshqaruv va huquq” bilim sohasi asosan “Biznes va boshqaruv” ta’lim sohasini aks ettiradi.



**2 – rasm. O‘zbekistonda 2020/2021 – 2022/2023 o‘quv yillarida OTM larda “Biznes, boshqaruv va huquq” bilim sohasi bo‘yicha tahsil olgan talabalar soni, ming kishi [14]**

2 – rasmdagi ma’lumotlarga ko‘ra, “Biznes va boshqaruv” ta’lim sohasida tahsil olayotgan talabalar soni muntazam o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, bu

mamlakatda biznes sohasi va bu soha uchun oliy ma'lumotli boshqaruv kadrlariga bo'lgan talabning tobora yuqori bo'lib borayotganligidan dalolat beradi.

Yuqoridagilardan ko'rinish turganidek, mamlakatimizda biznes sohasi uchun oliy ma'lumotli boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimi shakllangan bo'lib, bu tizim oldida bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan muammo va kamchiliklar, jumladan oliy ta'lim bilan qamrov va ta'lim sifatini ta'minlash, ilmiy – tadqiqot va innovatsion faoliyat, OTM ning moddiy – texnik bazasini mustahkamlash, oliy ta'lim jozibadorligini oshirish va xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni ta'minlash sohalarida muammo va kamchiliklarning mayjudligi [15] ularni bartaraf etish uchun ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarning ishlab chiqilishini talab qilmoqda.

## XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Biz yuqoridagi sohalar orasidan asosan oliy ta'lim jozibadorligini oshirish va xalqaro miqyosda raqobatbatbardoshlikni ta'minlash sohasidagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni taklif etib, ularni biznes sohasi uchun boshqaruv kadrlari tayyorlaydigan OTM lar nuqtai – nazaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqdik:

- biznes sohasi uchun boshqaruv kadrlarini tayyorlaydigan OTM larda xalqaro talablar darajasidagi statistika bilan ishlash tizimini rivojlantirish kerak bo'lib, bu birinchidan rahbariyatga raqobatbardosh qarorlarni qabul qilish uchun asos yaratса, ikkinchidan xorijliklarning OTM ga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi;

- biznes sohasi uchun boshqaruv kadrlarini tayyorlaydigan OTM larda talabalarning klublari faoliyatini takomillashtirish kerak bo'lib, bu birinchidan bo'lajak boshqaruv kadrlari uchun ish qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini yaratса, ikkinchidan xorijliklar oldida OTM jozibadorligini oshiradi;

- biznes sohasi uchun boshqaruv kadrlarini tayyorlaydigan OTM rasmiy veb-saytlarining jozibadorligini oshirish kerak bo'lib, bu birinchidan OTM ning ham mahalliy ham xalqaro ta'lim xizmatlari bozoridagi mavqeini oshishiga ko'maklashsa, ikkinchidan OTM ga xorijlik talabalarning oqimini kuchaytiradi;

- dars mashg'ulotlarida qo'llaniladigan talabalar taqdimoti usulidan foydalanish samaradorligini oshirish kerak bo'lib, bu birinchidan bo'lajak

boshqaruv kadrlarining biznes sohasidagi ish qobiliyatlarini kuchaytirish imkonini yaratса, ikkinchidan dars mashg‘ulotlarining amaliylik darajasini oshirish orqali xorijliklarning OTM ga o‘qishga kirish yoki unda o‘qishini davom ettirishga bo‘lgan qiziqishini orttiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mamlakatimizda biznes sohasini rivojlantirish oldiga quyilayotgan ulkan maqsad va vazifalarga erishishda zamonaviy bilim, ko‘nikma va tajribalarga ega bo‘lgan yuqori malakali boshqaruv kadrlarining roli katta bo‘lib, olivy ta’lim muassasasi bunday mutaxassislar guruhini shakllantirish va rivojlantirishda ishtirok etadigan eng asosiy tashkilot sifatida namoyon bo‘ladi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Osnovnye pokazateli sub’ektov malogo predprinimatelstva v Respubлиki Uzbekistan. Yanvar – dekabr 2023 goda. Tashkent: Agentstvo statistiki pri Prezidente Respubлиki Uzbekistan, 2024. 25 str.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqi. 20.08.2024. [www.president.uz](http://www.president.uz)

3. Aaron Etingen, Valery Kisilevsky, Cyndi Mcleod, Gary Narunsky, Boris Podlubniy, Viktoria Martin, Kayla Briel, Diana Mockute, Ehsan Safdari, Dr. Bashir Makhoul, Anish Dwivedi & Brian Mackay. Higher education’s role in developing the next generation of business leaders. January 5, 2023. [www.guscanada.com](http://www.guscanada.com)

4. Howard Thomas, Peter Lorange & Jagdish Sheth. The Business School in the Twenty – First Century: Emergent Challenges and New Business Models. London: Cambridge University Press, 2013. 282 pages.

5. Daniel Higginbotham. 7 skills for a successful management career. January 2024. [www.prospects.ac.uk](http://www.prospects.ac.uk)

6. Vladimirova I. L., Kallaur G. Yu. Sыгандова А. А. Model otvetstvennogo upravlencheskogo obrazovaniya v usloviyax transformatsii ekonomiki. Vestnik Rossiyskogo ekonomicheskogo universiteta imeni G. V. Plexanova. №3 (2021).

7. Sabirov A. X. Partnerstvo biznes - struktur i vuzov – kak drayver razvitiya ryntka biznes - obrazovaniya v Respublikи Uzbekistan. Materialы mejdunarodnoy nauchno – prakticheskoy konferensii «Innovatsii, znaniya, opyt – vektorы obrazovatelnix trekov» I kniga. Kostanay: Kostanayskiy regionalnyy universitet imeni A. Baytursynova, 2023. Str. 923 – 926.

8. Mirziyoev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2016. - 56 b.

9. [www.rgsbm.uz](http://www.rgsbm.uz) - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining rasmiy vebsayti.

10. [www.dba.uz](http://www.dba.uz) - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining rasmiy vebsayti.

11. [www.bfa.uz](http://www.bfa.uz) - O'zbekiston Respublikasi Bank – moliya akademiyasining rasmiy vebsayti.

12. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori. 2024 yil 29 may. 28 bet. [www.gov.uz/edu](http://www.gov.uz/edu)

13. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim faoliyatining asosiy statistik ko'rsatkichlari (2021/2022 – o'quv yili uchun). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2022. 20 bet.

14. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatining asosiy statistik ko'rsatkichlari (2022/2023 – o'quv yili boshiga). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, 2023. 21 bet.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsesiyanini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni. 2019 yil 8 oktyabr, PF – 5847 – son.